

O‘ZBEKISTONDA SUV TANQISLIGI MUAMMOSI VA UNING YECHIMLARI

N.Sh. Shadiyeva

Buxoro davlat pedagogika instituti

Geografiya kafedrasida dotsenti

A.A. Roziqov

TIQXMI Milliy tadqiqot universiteti.

Yer resurslari va kadastir fakulteti talabasi

S.H. Rahimova

Buxoro davlat pedagogika insituti.

Geografiya kafedrasida talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston ichki suvlari va ulardan foydalanish suvdan noto‘g‘ri foydalanishning salbiy oqibatlari, suv tanqisligi muammosi va uni keltirib chiqaruvchi omillar o‘rganilgan, tahlil qilingan va muammoning yechimlari va takliflar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Sirdaryo, Amudaryo, Gidrotehnik inshootlar, Aqilli suv, Toza ichimlik suvi, Transchegaraviy daryo.

Abstract: In this article, internal waters of Uzbekistan and their use, the negative consequences of improper use of water, the problem of water scarcity and the factors that cause it are studied, analyzed, and solutions and suggestions are given

Key words: Syrdarya Amudarya, Hydrotechnical facilities, Smart water, Clean drinking water, Transboundary river

Аннотация: В данной статье изучены, проанализированы внутренние воды Узбекистана и их использование, негативные последствия ненадлежащего использования воды, проблема дефицита воды и факторы, вызывающие ее, а также даны пути решения и предложения.

Ключевые слова: Сырдарья, Амударья, Гидротехнические сооружения, Умная вода, Чистая питьевая вода, Трансграничная река.

Suv-hayot manbai. Uning qiymati dunyo globallashuvi jarayonida yanada yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Zero suvsiz hayot yo‘q. Suv tiriklik evolutsiyasiga ham, atrof-muhit, iqlim o‘zgarishlariga ham million yillardan buyon beqiyos ta‘sir ko‘rsatib kelayotgan obi hayotdir. Shunday ekan, insoniyat uni ko‘z qorachig‘idek asrashi shart. Qayd etish joizki, hozirgi paytda suvga bo‘lgan talab va ehtiyoj har qachongidan tobora ortib bormoqda. Natijada butun dunyoda suv tanqisligi kuzatilyapdi. Ushbu dolzarb masala Markaziy Osiyoni ham chetlab o‘tgani yo‘q.

Bugungi kun tadqiqotlariga ko‘ra yaqin 20 yil ichida O‘zbekistonda suvga bo‘lgan talab sezilarli darajada oshadi va mavjud suv resurslari keskin kamayadi. Bu esa joriy suv tanqisligini 5 barobargacha oshiradi. Bu davrga borib O‘zbekiston suv tanqisligi bo‘yicha qizil hududlar qatoriga kiradi. Mutaxassislar hisob kitobiga ko‘ra 2050-yilga kelib suv resurslari sirdaryo havzasida 5 % Amudaryo havzasida 15% gacha kamayishi aytilmoqda Boshqa tomondan esa aholining o‘sishi hisobiga O‘zbekistonda 2030-yilga borib suvga bo‘lgan talab 7 mlrd kub metr ga yetishi 2050-yilga kelib esa bu talab 2 barobarga ko‘payishi mumkin. O‘zbekistonda bir yilda ishlatadigan suvning 20%i o‘zimizda shakllanadi. Qolgan 80%i Tojikiston va Qirg‘izistondan keladigan daryolar suviga bog‘liq. Ammo bu ikki mamlakatning ham o‘z manfaati bor har ikkala davlat elektr energiyasini daryolar bo‘yida qurilgan GESlardan oladi. Shuningdek iqlim o‘zgarishi natijasida ham mamlakatimizda suv tanqisligi kuchayib bormoqda. Hozirda Respublikada suv resurslarini samarali boshqarish va ulardan oqilona foydalanish maqsadida sug‘orish tarmoqlarining foydali ish ko‘ffitsentini oshirish, gidrotexnik inshootlarni taminlash hamda tiklash ,rekonstruksiya qilish, sug‘oriladigan yerlarning suv taminotini oshirish va meliorativ holatini yaxshilash, sohaga raqamli tehnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Joriy yilning 8-fevral kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev hududlarda ichimlik suvi taminotini yaxshilash masalalari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazilgan. Unda asosiy e‘tibor aholini toza ichimlik suvi bilan ta‘minlash masalalariga bag‘ishlanadi. Ma‘lum bo‘lishicha Respublikamizda oxirgi 5 yilda sohaga 10 trln so‘m yoki oldingi yillarga nisbatan 5 barobar ko‘p mablag‘ sarflangan bu davrda 6 mln 500 ming aholi ilk bor markazlashgan ichimlik suvi bilan ta‘minlangan. Jumladan o‘tgan yili 474 ta suv inshooti qurilib 6 ming 300 km ga yaqin tarmoqlar tortilgan. 592 ta mahallada 2 mlndan ortiq aholining suv taminoti yaxshilangan. Takidlanishicha bu masalada qiynalayotgan mahallalar ko‘p va bazi tumanlarda bu ko‘rsatgich 30 % ga ham yetmaydi. Shu bois kelgusi 5 yilda bu sohaga 40 trillion so‘m investitsiya jalb qilinib ichimlik suvi taminoti 90 % oqava suvlari 35 % ga ko‘tarish rejalashtirilmoqda(O‘zsuvta‘minot Aksiyadorlik Jamiyati).

Bugungi kunda Respublikamizdagi 8000 ta suv qudug‘idan 1500 tasi yaroqsiz holatga kelgan. Oqibatda qariyb 800 ta mahalladagi 2 mln aholining suv taminoti yomonlashgan. Zomin Nurota va Qo‘shrabot konlarida quduqlar qazish Zarafshon va Chirchiq daryolari o‘zanlaridan qum shag‘al olish nazoratsiz va pala-partish bo‘lganligi sababli bu hududlarda yer osti chuchuk suvlari zahiralari 30 metr ga pasaygan. Suv tanqisligi kuchayib borishi sababli yuqori oqimdagi davlatlar . o‘rtasida quyidagi masalalarda muammoli vaziyatlar mavjud.

❖ Transchegaraviy daryolarning suv resurslaridan bir tomonlama va kelishilmagan holda boshqarishga intilishning kuchayishi.

❖ Suvni tijoratlashtirish va unga tovar sifatida munosabatida bo‘lish kayfiyatining ortishi.

❖ Iqlim o‘zgarishi natijasida ichki energetik ehtiyojlarni ta‘minlash uchun yuqori oqimdagilardan kelib chiqib transchegaraviy suvdan foydalanish masalasida barqaror tomonlar uchun teng manfaatli bo‘lgan yangi kelishuvga erishish suvdan oqilona foydalanishda yagona strategic yondashuvga o‘tishni tezroq hal qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib transchegaraviy suvdan foydalanish masalasida barqaror tomonlar uchun teng manfaatli bo‘lgan yangi kelishuvga erishish suvdan oqilona foydalanishda yagona strategic yondashuvga o‘tishni tezroq hal qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda suv sathining pasayishi tufayli gidro elektr stansiyalari unumdorligi 23 % ga kamaygan, bu esa mamlakatning ayrim hududlarida elektr energiya taminotida qisqa muddatli uzulishlarga olib keldi. Qayd etilishicha 2019-yilda gidroelektr stansiyalarda ishlab chiqarish 6,5 mlrd kVt/soatnitashkil etgan bo‘lsa joriy yilda bu ko‘rsatkich 1,5 mlrd kVt/soatga kamni tashli qilmoqda.

O‘zbekistonda suv tanqisligi muammosi asosan 2 yo‘nalishda

➤ Birinchi navbatda, aholi ehtiyojlari uchun yetraki ichimlik suvi mavjud emasligi

➤ Qishloq xo‘jaligini suv resurslari bilan ta‘minlashda jiddiy muammolar yuzaga kelayotgani

Sodda qilib aytganda suv tanqisligi sabab O‘zbekiston foydalanilayotgan suv miqdori hatto o‘tgan asrning 80-yillarida hisoblangan respublika bo‘yicha suvga ehtiyojning 75-80 foiziga ham yetmaydi. Holbuki o‘tgan asrda aholi soni qariyb ikki baravarga o‘sdi sanoat rivojlandi va umumiy ehtiyojlar yanada ko‘paydi. Xuddi shunda holat qo‘shni davlatlarda ham kuzatilgani inobatga olinsa hozirgi sharoitda mintaqada suv manbalaridan foydalanish nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etib bormoda.

O‘zbekistonda 4,3 mln gektar (Markaziy Osiyodagi jami sug‘oriladigan yer maydoni 7,9 mln gektar. Bunda O‘zbekistonning ulushi qariyb 55 foiz) sug‘oriladigan ekin mydonlari mavjud. Mamalakatdagi suv resurslarining 90 % i qishloq xo‘jaligi sohasida ishlatiladi. Shu jihatdan suv resurslari kamayishi mintaqalardagi boshqa davlatlarga nisbattan O‘zbekiston uchun ko‘proq salbiy oqibatlar bilan xarakterlanadi

Jahon banki tahliliy ko‘rsatkichlariga ko‘ra 2050- yilga borib O‘zbekistonda suvga bo‘lgan talab 59 kub.km dan 62-63 kub.km gacha oshadi va mavjud suv resurslari 57 kub.km dan 52-53 kub.km gacha kamayadi bu esa joriy suv tanqisligini (2 kub km.dan 11-12 kub km gacha) 5 barobarga oshiradi.

O‘zbekiston suv resurslarini tashkil qilishdagi hozirgi o‘rni

1-jadval

Daryo vohalari	O‘zan	Irmoqar	Jami	Yer osti suvlari	Kollektor Drenaj suvlaridan foydalanish uchun tavsiya	Jami suv resurslari mavjudligi
Sirdaryo	10490	9425	19915	1590	2600	24105
Amudaryo	22080	10413	32493	301	2310	35104
Jami O‘zbekiston bo‘yicha	32750	19838	52408	1891	4910	59209

Suv resurslari tejash, muhofaza qilishning ekologik, iqtisodiy-xususiyatlari va ahamiyati. O‘rta Osiyo suv resurslari agarda uni tejab ishlatilsa 70-80 million kishiga yetishi mumkin BMT ma’luotlariga ko‘ra 2030-yillarga borib O‘rta Osiyoda shuncha aholi yashaydi. O‘rta Osiyo aholisi 50 million kishiga yetmasdan Orol dengizining qurishi, suv tanqisligining sezilishi, bu eng avvalo suv resurslaridan tejamsiz foydalanish isrofgarchilikning nihoyatda yuqori ekanligini bildiradi. Suvdan noto‘g‘ri foydalanish quyidagi muammolarni keltirib chiqarmoqda.

- Suv resurslarining tanqisligi;
- Orol dengizi va ko‘ogin ko‘llarning qurishi;
- Mavjud sug‘orilayotgan ko‘llarning va hosildorlikning keskin pasayishi;
- Bio xilma-xillikning kamayishi;
- Mavjud suv resurslari suv manbalarini hamda uning atrofida ekologiyaning izdan chiqishi va ifloslanishi;
- Aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlay olmasligimiz.

Yuqoridagi kamchiliklar suv resurslaridan foydalanishdagi asosiy kamchiliklar hisoblanadi. Suv resurslaridan foydalanishni yaxshilashning majmua amalga oshirish maqsadga muvofiqdir, negaki yuqoridagi muammolarning hammasi bir-biriga chambarchas bog‘liqdir.

O‘zbekiston suvni tejash va muhofaza qilish zaruriyati yuqoridagi muammolarni yechish maqsadida quyidagilarni amalga shirishni taqozo etadi:

1	Sug‘orish tizimining tizimi va o‘lchamlarini zamonaviy sug‘orish texnikasi bilan mustahkamlash orqali uning samaradorligini oshirish
2	Kollektor-Zovursuvlarini tashlab yuborishni tartibga solish, ulardan unumli foydalanishni yo‘lga qo‘yish
3	Aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta’minlash
4	Qishloq xo‘jaligini kam suv sarflaydigan o‘simliklarga ixtisoslashtirish Suv manbalarining ifloslanishini oldini olish

Bugungi kunda suv tanqisligini deyarli har qadamda va har soniyada his eish mumkin bo‘lib qoldi. 1990-yillarda 1 mlrd aholi suvga bo‘lgan minimal ehtiyojlarini qondira olmadi. Bu duno aholisining 17% demakdir. Hozir esa 43 ta mamlakatda yashovchi 884 mln aholianashunday vaziyatda yashab kelmoqda. 2030-yilga borib jahondagi 45% aholi “mutloq” suv tanqisligi xavfi ostida qoladi 67% aholigina minimal ehtiyojlarini qondira oladi.

Suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilishdagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish suv tanqisligining salbiy tasirini yumshatish, shuningdek qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishda suv resurslaridan yanada samarali foydalanish masadida aniq chora-tadbirlar hayotga tadbiiq etilmoqda.

Albatta bu borada amalga oshirilgan vazifalar kelgusida suv tejoyvchi texnologiyalari joriy qilgan maydonlar ko‘lamini sezilarli daralada oshishiga imkon beradi.

Takidlash kerakki bugun barcha jabhada bo‘lgani kabi suv xo‘jaligi sohasida ham raqamli tehologiyalarni joriy qilishga jiddiy e‘tibor qaratmoqda. Shu maqsadda 5479 ta “Aqlli suv” nosos stansiyalariga 1446 ta onlayn nazorat qurilmalari, shuningdek meliorativ kuzatuv quduqlariga minerlashganlik darajasini onlayn nazorat qiluvchi 5055 ta “Drayver” qurilmalari o‘rnatildi, 45ta yirik suv xo‘jaligi ob‘ektlarining boshqaruv jarayoni avtomatlashtirildi.

Muxtasar qilib aytganda- suv tanqisligi global muammo. Bunday sharoitda dunyoning ko‘plab mamlakatlari qatori O‘zbekistonda ham suv baresurslaridan oqilona foydalanishga oid muhim chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Zero suvni tejoyvchi texnologiyalarni keng joriy etish nafaqat suv sarfini kamaytirish imkonini beradi balki yashil iqtisodiyotga o‘tishning eng muhim elementiga aylanadi. Bu o‘z navbatida O‘zbekistonning barqaror rivojlanishini kafolatlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. F.Xikmatov, G.X.Yunusov, N.Z.Sagdeyev, D.M.Turgunov, R.R.Ziyayev, Gidrometriya. “Sano-standart” Toshkent-2014 y.
2. S.KKarimov, A. Akbarov, U. Jonqobilov. Hidrologiya gidrometriya va oqim hajmini rostlash”. O‘zbekiston nashriyot matbuot ijodiy uyi. Toshkent-2004 y.
3. G‘. X. Yunosov , R.R. Ziyayev. Umumiy gidrologiya va iqlimshunoslik. “Barkamol fays media nashriyoti” Toshkent 2018 yil
4. B.K.Soliyev S.A.Azimboyev. Hidrologiya va Gidrometriya. Toshkent “Yangi asr avlodi” 2006 yil.
5. Y.Q. Xayitov Gidrologiyadan amaliy mashg‘ulotlar . Durdona nashriyoti Buxoro-2024 yil.
6. S.Karimov A.Akbarov , U. Jonqobilov. Hidrologiya va gidrometriya va oqim hajmini rostlash . “O‘zbekiston” nashriyot matbaa ijodiy uyi .Toshkent-2004yil